

Xalikov Sindorkul Ravshanovich

Jizzax politexnika instituti,
Arxitektura fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
Jizzax, O'zbekiston

**ME'MORIY YODGORLIKLARNING KOMPOZITSION
YECHIMLARINI ARAB XATTOTLIGIDAGI "MUFRODAT" MODULI
ASOSIDA TAHLIL ETISH.**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ota – bobolarimizning arab tili va yozuvini o'zlashtiribgina qolmay, me'morchilik va xalq amaliy san'atning barcha jabhalarida husnixatdan foydalanishganligi shu bilan birga xattotlik qonun-qoidalari me'moriy obidalarini ta'mirlashda, qayta tiklashda muhim ahamiyat kasb etishi bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *arab tili, arxitektura, san'at, ellips, mufradot, uyg'unlik, ravoq.*

Khalikov Sindorkul Ravshanovich

Jizzakh Polytechnic Institute,
Doctor of Philosophy (PhD) in Architectural Sciences, Associate Professor
Jizzakh, Uzbekistan

**ANALYSIS OF COMPOSITION SOLUTIONS OF
ARCHITECTURAL MONUMENTS BASED ON THE "MUFRODAT"
MODULE IN ARABIC CALLIGRAPHY.**

Abstract: *The article tells how our ancestors not only mastered the Arabic language and writing, but also used calligraphy in all aspects of architecture*

and folk art, and how the rules and regulations of calligraphy play an important role in the repair and restoration of architectural monuments.

Keywords: *Arabic, architecture, art, ellipse, monotony, harmony, portico.*

Kirish.

Olamning birligi g'oyasiga asoslangan holda san'atning barcha turlari, jumladan, arxitekturaning ham dunyo tuzilishi zaminida yotgan fundamental qonunlarga asoslanishi, o'zida turli diniy, falsafiy ma'no-mazmunlarni ifodalashi, binolarning kompozitsion tuzilishida matematikani hamda geometrik uyg'unlashtirish (garmoniya) qonunlarining qo'llanilishi uni ob'ektiv san'at tomon yo'naltiradi. Bu arxitekturaning shakl yaratishdagi eklektik yo'nalishga, modda shakllantirish yo'nalishga emas, balki tabiatdagi uyg'unlik qonunlari aks etgan, idrok etish qonunlariga hamohang bo'lgan yo'nalishga tomon yo'naltiradi [8]. Doimiy harakatda va o'zgarishda bo'lgan cheksiz va benihoya olamning birligi, butunligi undagi hukmron fundamental qonunlar Allohning irodasi tufaylidir. Har qanday qonuniyatning zaminida matematik munosabatlar yotadi.

Alloh tomonidan insonning qalbi va ruhiga, ma'naviy dunyosiga singdirilgan go'zallik g'oyasining global estetik va genetik dasturining moddiy hayotida namoyon bo'lishi, uni arxitektor tomonidan foydalanishi mumkin bo'lgan obyektiv tabiat qonuniyatlaridan, tamoyillaridan ajratib bo'lmaydi. Bu qonuniyatlar me'moriy obektning fazoviy tuzilishida, uning obrazida, eksterer va intererlarida obyekt bilan bir butunlikda, yaxlit holda namoyon bo'ladi. Shakl yaratishdagi bu yo'lning eng e'tibor beriladigan tomoni shundaki, bunda hozirda bizga ma'lum bo'lgan qonuniyatlar, tamoyillar dastlabki, bino va inshootlar qurilishi boshlangan davridan ancha vaqt o'tgach yuzaga chiqqan boshlagan, agar odamlar bino va inshootlar tuzilishida yuqorida aytilgan qonuniyatlar va turli tamoyillar bo'lishi mumkinligini oldindan bilmagan bo'lsa, u holda arxitektura shakllarida bunday xususiyatlar qanday qilib yuzaga chiqish mumkin, degan savol tug'iladi. Bu jiddiy e'tiborga loyiq bo'lgan murakkab masaladir. Bu

masalada umuman Allohning go‘zallik g‘oyasi va uning inson ruhiyati, ijodiy faoliyati orqali arxitektura shakllarda yuzaga chiqishi jarayoniga e‘tibor qaratishimiz kerak. Shu nuqtada diniy tushunchalar bilan aniq fanlar tushunchalari uchrashadi.

Asosiy qism.

Arxitekturani san‘at darajasiga ko‘taradigan qonuniyatlar odamlarni qadimdan qiziqtirib kelgan. Shu sababli, arxitektura inshootlari tuzilishi asosidagi matematik va geometrik qonuniyatlar, uyg‘unlik, mutanosiblik, bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari olib borishgan.

Gumbazlar shaklini chizishda ellips yoyidan foydalanish qoidasiga asoslangan. Ellips yoyidan yasash qoidasi esa IX asrda yashab ijod etgan matematik al-Xasan ibn Muso ibn Shokir va Ibn Sinnan (Ibn Sino emas) tomonidan bayon qilingan. Al-Xasan ellipsni uning ikki nuqta fokusiga birlashtirilgan va uzunligi ellipsning katta o‘qiga teng bo‘lgan ipni tarang tortib qalam yoki chiziq yordamida chizishni taklif qilgan. Ibn Sinan esa ellipsni uning katta o‘qiga teng qilib chizilgan aylanani bir necha tik bo‘laklarga qirqishni va har bir qirqimni teng to‘rtga bo‘lishdan hosil bo‘lgan nuqtalarni o‘zaro birlashtirish natijasida chizishni taklif qilgan.

M.S. Bulatov o‘zining arxitekturada handasaviy uyg‘unlik haqidagi mashhur asarida ravoq, toq va gumbazlar yasashini tadqiq etishda aynan shu Ibn Sinnan ko‘rsatgan uslubni asos qilib oladi va undan keng foydalanadi.

Biroq L.I. Rempelning fikricha, ravoq chizishdagi bu ikki uslub bir-birini hech qachon almashtirmagan, aksincha ular bir vaqtning o‘zida bunday foydalanishda bo‘lib kelgan Arxitektura doktori P.Sh. Zohidov esa ravoq chizishning ellips uslubini amalda qo‘llash ancha murakkabligini e‘tiborga olib, amalda asosan pargor uslubi keng qo‘lanilgan, degan fikrni bildirgan.

O‘rta Osiyo me‘morchiligida ravoq, toq va gumbazlar shaklini kuzatish shuni ko‘rsatadiki yopiladigan xona yoki zal qanchalik katta bo‘lsa toq yoki gumbaz yoyining tikligi ham shunchalik katta bo‘lgan. Aynan shu narsa Mirzo

Ulug‘bek boshliq Samarqand “akademiyasi”ning etuk ilmiy xodimi G‘iyosiddin Jamshid Koshiyning “Hisob kaliti” 9 bobi me‘morchilikda handasasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda toq va gumbazlar shaklini chizishga doir besh xil uslubni taklif qilgan ravoqlar chizish usullarida ko‘rishimiz mumkin. Bu esa toq va gumbazli qurilmalar shaklini ishlashda nafaqat badiiy uyg‘unlik, mutanasiblik va go‘zallik talablari, balki mustahkamlik va qurilmaviy talablar ham e‘tiborga olinganligi isbotidir [7]. Mashhur olimlar B.N.Zasipkin, L.I.Rempel, G.A.Pugachenkova P.Sh.Zoxidov, K.S.Kryukov, V.L.Voroninalar Markaziy Osiyo obidalariga xos o‘nlab gumbaz tuzilishini o‘rganib chiqib, G‘iyosidin Jamshid Koshiyning ko‘rsatgan usulni to‘g‘riligini tasdiqlaganlar.

O‘rta Osiyo me‘morchiligida gumbazli qurilmalar arxitekturaviy shakllar uyg‘unligi va yaxlitligiga katta tasir ko‘rsatib kelgan. K.S.Kryukovning aniqlashicha, gumbazning geometrik shakli ularni 4:6, 4:8, 3:5, 7:12 nisbatli to‘g‘ri burchaklar ichiga chizishdan kelib chiqadi.

Me‘morchilikda matematik asoslarini o‘rganish zarur. Buni o‘rganmaslik faqat tasodifiy natijalarni kutish mumkin. Lekin biz nazarda tutayotgan modul turi va geometrik ishlanish tizimi arxitektura va xattotlikning ob‘ektiv qonunlaridir.

Arxitektura va xattotlikning qonunlarini o‘rganar ekanman, ular orasidagi uzviy bog‘liqliklarni tahlil qilib bu ikki sohani qonuniyatlar me‘moriy obyektning fazoviy tuzilishida, uning obrazida, eksterer va intererlarida obyekt bilan bir butunlikda, yaxlit holda namoyon bo‘lganligini aytib o‘tishim zarur.

Respublikamizdagi me‘moriy yodgorliklarning o‘ziga xosligini ulardagi kompozitsion echimlarning zaminida yotgan qonun-qoidalar ta‘minlaydi. Me‘moriy bezaklarni o‘rganish arab xattotligidagi “Mufradot” vazni usulini va me‘moriy yodgorliklarning kompozitsion echimlarini hal etishda ham qo‘llanilganligini ko‘rsatdi. Bu esa me‘moriy yodgorliklarimizni ta‘mirlashda ularni “Mufradot” vazni asosida tahlil etilishi, buzilgan yoki butunlay yo‘qolgan

qismlarini ushbu ilm qonun-qoidalarini asosida tiklanishi zarurligini ko'rsatadi [10].

Arab xattotligining qonun-qoidalarini turi geometrik shakllarga asoslangan bo'lib, yozuvida to'g'ri va doiraviy chiziqlar qo'llaniladi.

Xat turlarining shaklini chizishda ellips yoyidan foydalanish qoidasiga asoslangan, geometrik shakl asosida nisbatli to'g'ri burchaklar ichiga chizishdan kelib chiqadi. Arxitektura qo'llanilgan nisbatlarning arab xattotligida qo'llanilgan nisbatlar bilan hamohangligini ko'rishimiz mumkin.

K.S.Kryukov fikricha O'rta osiyo me'morchiligi ravoq, toq va gumbazli qurilmalar o'lchamlari (kengligi va balandligi) ning mutanosib munosabatlardaligini ta'kidlagan.

Arab xattotligida xat turlarini oson o'qish va ularning ma'lum xat turiga ajratish usullari mavjuddir. Ularning o'zaro farqlanishlari ufqiy satr chizig'iga nisbatan yirik, uzun hamda yotiqlik'iga qarab aniqlanadi. Bu esa K.S.Kryukovning kenglik va balandlik nisbatlarning aynisidir. Islom san'atining barcha sohalari orasida Islom dini geometriyasi bugungi kunda kam o'rganilgan sohalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ehtimol, har birimiz bir necha bor masjid devorlaridagi naqshlarga boqib, ustalarning nozik ishlariga qoyil qolganmiz. Tirik mavjudotlarni tasvirlashni taqiqlovchi Islom dini qonuniyati me'morchilik, xattotlik va bezak kabi sohalarning rivojlanishiga turtki bo'lgandir. Ushbu san'at turi predmetning shaklini rad etib, uning mohiyati, maqsadiga qaratilgan.

Islom me'morchiligi, shubhasiz, inson qo'li bilan yaratilgan eng go'zal shakllardan biri simmetriyadir. U islom tarixi davomida musulmon madaniyatlari ichida rivojlangan. Ruhiy mohiyatdan ilhomlangan. Islom san'atining har bir asarida muhim omil va arxitektura-bu katta yoki kichik bo'ladigan sirtning mavhum bezagidir [9].

Islom me'moriy dizayni va qurilishi turli dunyoviy va diniy uslublarni birlashtiradi. Bu butun Islom dini tarixini qamrab oladi. Islom me'moriy

xususiyatlarining asosan masjidlar, maqbaralar, qal'alar va saroylarda, islom me'morchiligining evolyusiyasini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa.

Arab xattotligining qonun-qoidolari va vujudga kelish tarixi o'rganish va tahlil qilishda "Mufradot" moduliga asoslangan mukammal yozish usuli. Bu usul batafsil o'ylangan qonun-qoidalariga asoslangan. Qadimgi qo'lyozmalarda, me'moriy yodgorliklarga yozilgan arab yozuvlarida ushbu qonun-qoidalariga qat'iy rioya qilingan.

Hozirgi kunda me'moriy yodgorliklarni, ulardagi arabcha yozuvlarni ta'mirlashda arab xattotligi qonun-qoidalarining buzilishi, mufradot ilmini to'liq tushunib etmaslik hollari sezilmoqda. Bunday noxush hollar me'moriy yodgorliklar mohiyatining buzilishiga, arab xattotligi usulining sekin-asta o'zgarib ketishi kabi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli me'moriy yodgorliklar yozuvlarini ta'mirlovchi ustalar arab xattotligining mufradot ilmi nazariyasini mukammal bilishlari lozim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ахрорв Ҳафиз Каримович. Хаттотлик санъати ва арабча ёзув турлари. Самарқанд 2014.й. 3-10.б.
2. Шайх Козим ал –Арзайий. “Дурусул – хаттил – арабий – ал – Хаттун - Насхи”. 1834.
3. Квернен, Элизабет (2009). «Введение в арабскую, османскую и персидскую каллиграфию: стиль». Каллиграфия Калам.
4. Масъудали Хакимов. “Хатти Муъаллими” Тошкент 1991.
5. Абдурашид (Раимхўжа) Шоюнусов. “Араб хаттотлик санъати”. Тошкент 1990-2006.

6. Khalikov, S.R. (2021). History of the development and emergence of the rules of Arabic calligraphy. ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (103), 1134-1138.
7. Ўралов А.С. Меъморий шаклларни уйғунлаштириш ва безак.— Самарканд. 2003, 260 б.
8. Муҳаммаджонов Қ.Ҳ. Объектив архитектура санъати ҳақида. — Тошкент. 2019. 72 б.
9. CoppelstoneTrewin, World architecture, Chiarivel book.1968.
10. Халиков С. Р. Архитектура бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертатсия автореферати. - Тошкент — 2022